

**TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Rizakulova Mohira Abdulxayevna

*Farg'ona viloyati Uchko'prik
tumani 20-maktab psixologi*

Anotatsiya: Ushbu tezisdagi tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashning psixologik asoslari, ular bilan qay holatda ishlashning usullari yoritilgan. Bundan tashqari, tarbiyasi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan to'g'ri maqsadda ishlash strategiyalari, psixologik metodlar va motivatsion usullar ko'rib chiqiladi. Tasdiqlangan ma'lumotlarga ko'ra, o'qituvchilarga o'quvchilarning ijobiy xulqini shakllantirish, muammoli vaziyatlarga qanday yechim topish va individual yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Tarbiyasi qiyin o'quvchilar, xulq-atvorni rivojlantirish, motivatsiyaning ahamiyati, individual yondashuv, psixologik metodlar.

Аннотация: В данной работе рассматриваются психологические основы работы с трудными учениками, методы работы с ними в различных ситуациях. Кроме того, анализируются стратегии, психологические и мотивационные методы работы с трудными учениками. На основе подтвержденных данных работа помогает учителям формировать позитивное поведение учеников, находить решения проблемных ситуаций и развивать индивидуальный подход.

Ключевые слова: Трудные ученики, развитие поведения, важность мотивации, индивидуальный подход, психологические методы.

Abstract: This thesis discusses the psychological foundations of working with difficult students, the methods of working with them in different situations. In addition, strategies, psychological methods and motivational methods for working with difficult students are considered. According to confirmed data, it helps teachers to form positive behavior in students, find solutions to problem situations and develop an individual approach.

Keywords: Difficult students, behavior development, the importance of motivation, individual approach, psychological methods.

Kirish:

Hozirgi kunda ta'lim sohasida, tarbiyasi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday o'quvchilarning xulq-atvori, psixologik holati hamda ijtimoiy muhitga qay darajada moslashganligi o'qituvchilardan individual yondashuvni taqazo qiladi.

Asosiy qism:

Tarbiyasi qiyin o'quvchilar odatda odob-axloqning buzilishi, darsga qiziqmaslik, e'tiborsizlik jihatlari bilan ajralib turadi. Bunday holatlarning kelib chiqishiga oiladagi muhit, ota-onaning farzandga to'g'ri tarbiya bermaganligi va yetarlicha vaqt ajratmaganligidan, tengdoshlarining o'quvchiga bo'lgan munosabati hamda psixologik omillar sabab bo'lishi mumkin. Psixologik jihatdan, bunday o'quvchilar bilan ishlashda ularning individual xususiyatlarini e'tiborga olish joiz hisoblanadi. Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va ruhiy holatini o'rganib, unga mos yondashuv tanlanishi lozim. Motivatsiyani oshirish, rag'batlantirish, ijobiy munosabatni shakllantirish samarali natija beradi. Shuningdek, hozirgi kundagi pedagoglar psixologik konsultatsiya, jumladan, suhbat, kuzatish, test va turli xil o'yinli metodlardan foydalanishlari lozim. O'quvchini jazolab, tarbiyasini yanada mushkul ahvolga keltirmasdan, uning qay holatda ekanligini tushunib o'quvchiga qiziqtirish yordamida tushuntirish va turli usullardagi rag'batlar orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Darhaqiqat, ota-onalar bilan doimiy hamkorlikda bo'lish ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, tarbiyasi murakkab o'quvchilar bilan ishlash qiyin ishlardan biridir, ammo muhim jarayon hisoblanadi. O'quvchilar bilan ishlashda psixologik yondashuv, individual munosabat va samarali pedagogik metodlar muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tashkil etilgan metodlar, tarbiya jarayoni orqali bunday o'quvchilarning ijobiy xulq-atvorini rivojlantirish va ularni jamiyatga to'g'ri moslashuvini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova S.A. Mavlonov M.M. To'ychiyeva S.M. Yosh va pedagogik psixologiya. -T.: TDPU, 2004.
2. Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2010. 400
3. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. -T.: Yangi asr avlodi.
4. G'oziyev E.G. Psixologiya fani XXI asrda. -T.: Universitet.
5. Karimova V.M. Psixologiya. -T.: Sharq, 2000. -256 b.